yoti va dinamikasi hukumatning ijtimoiy siyosatning asosiy yo‘nalishlari sifatida aholining bandligi, ayniqsa, yoshlarning bandligi hamda aholi o‘rtasida, bunda ham baayni yoshlar o‘rtasida ishsizlikni kamaytirish ba bandlikni oshirish borasida ishlab chiqilayatgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosat va islohotlarning nechog‘liq darajada natijadorligi bilan tavsiflanadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, ishsizlik bu jamiyatning barqarorligiga juda salbiy ta’sir ko‘rsatadi va oqibatlari nafaqat individual, balki ijtimoiy xarakterga xos, shuning uchun ham uning umumjamiyat miqyosida juda keng ko‘rinish hosil qilishiga yo‘l qo‘ymaslik lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). https://president.uz/oz/lists/view/7049

(2). Макконелл К.Р., Брю С.Л. Экономис. 13-е издание, М., “Инфра”, М, 1999.

(3). Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. М., «Экономика», 1967.

(4). Самуэльсон П. Экономика, М., 1992.

(5). Кейнс Д. Общая теория занятости, процента и денег. М., «Экономика», 1993.

(6). Абулқосимов Х.П. Иқтисодиётда инсон омили: шаклланиши, амал қилиши ва фаоллашуви. – Тошкент, “Академия”, 2006.

(7). Абдураҳмонов Қ.Х., Холмўминов Ш.Р. Меҳнат иқтисодиёти ва социологияси. Ўқув қўлланма, Тошкент, ТДИУ, 2004.

(8). Шоюсупова Н. Меҳнат социологияси (ўқув қўлланма). Тошкент, Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси Адабиёт жамғармаси нашриёти, 2004.

(9). https://kun.uz/39504315?q=%2F39504315#!

(10). https://scientific-jl.org/tal/article/download/6522/6328/12631

(11). https://uz24.uz/uz/articles/demografiya-5-28

(12). https://kun.uz/news/2025/01/25/ozbekiston-aholisi-soni-38-milliondan-oshdi

Hakimov Akmaljon Mirzag‘aniyevich (Qo‘qon davlat universiteti “Falsafa va dinshunoslik” kafedrasi katta o‘qituvchisi (PhD); ORCID 0009-0009-6622-1168; Science ID:FFR-1026-0005)

AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA URBANIZATSIYA FENOMENINING ONTOLOGIK VA FUNDAMENTAL ASOSLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada axborotlashgan jamiyat sharoitida urbanizatsiya fenomenining ontologik asoslari va zamonaviy ijtimoiy jarayonlardagi o‘rni falsafiy nuqtayi nazardan tahlil etiladi. Insonning makon, vaqt, ijtimoiy muhit va axborot bilan munosabatlarini tubdan o‘zgartiruvchi murakkab ijtimoiy-falsafiy hodisa sifatida talqin qilinadi. Tadqiqotda urbanizatsiyaning ontologik mazmuni uning raqamlashtirish, globallashuv va innovatsion rivojlanish jarayonlari bilan o‘zaro aloqadorligi tahlil qilinadi..*

Kalit so‘zlar: *axborotlashgan jamiyat, urbanizatsiya, ontologiya, shahar makoni, raqamli makon, ijtimoiy borliq, globallashuv, raqamlashtirish, innovatsiya, ijtimoiy taraqqiyot.*

Хакимов Акмалжон Мирзаганиевич (Кокандский государственный университет, старший преподаватель кафедры "Философия и религиоведение" (PhD); ORCID 0009-0009-6622-1168; Science ID:FFR-1026-0005)

ОНТОЛОГИЧЕСКИЕ И ФУНДАМЕНТАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ ФЕНОМЕНА УРБАНИЗАЦИИ В ИНФОРМАЦИОННОМ ОБЩЕСТВЕ

Аннотация. *В данной статье с философской точки зрения анализируются онтологические основы феномена урбанизации в условиях информационного общества и его роль в современных социальных процессах. Интерпретируется как сложное социально-философское явление, коренным образом меняющее отношения человека с пространством, временем, социальной средой и информацией. В исследовании анализируется онтологическое содержание урбанизации во взаимосвязи с процессами цифровизации, глобализации и инновационного развития.*

Ключевые слова*: информационное общество, урбанизация, онтология, городское пространство, цифровое пространство, социальное бытие, глобализация, цифровизация, инновации, социальное развитие.*

Khakimov Akmaljon Mirzaganievich (Kokand State University Senior Lecturer at the Department of Philosophy and Religious Studies (PhD); ORCID 0009-0009-6622-1168; Science ID:FFR-1026-0005)

ONTOLOGICAL AND FUNDAMENTAL FOUNDATIONS OF THE URBANIZATION PHENOMENON IN THE INFORMATION SOCIETY

Annotation. *This article analyzes the ontological foundations of the urbanization phenomenon and its role in modern social processes within the context of an information society from a philosophical*

perspective. It is interpreted as a complex socio-philosophical phenomenon that fundamentally changes human relations with space, time, the social environment, and information. The study analyzes the ontological content of urbanization and its interconnection with the processes of digitalization, globalization, and innovative development.

Keywords: *information society, urbanization, ontology, urban space, digital space, social existence, globalization, digitalization, innovation, social development.*

Kirish. Axborotlashgan jamiyatga ijtimoiy taraqqiyotning o'ta tezkorligi bilan ajralib turishi, bu davr turli xildagi sivilizatsiyalarning yaqinlashuvi, umumiy madaniyat va qadriyatlarga ega bo'lgan yaxlit dunyoviy tizimning shakllanayotganligi bilan xarakterlanadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi jamiyatning barcha sohalariga, xususan, shaharlar hayotiga chuqur kirib borib, urbanizatsiya jarayonlarining yangi ontologik asoslarini shakllantirmoqda.

Axborotlashgan jamiyat sharoitida urbanizatsiyaning mazmuni va mohiyati yanada murakkablashmoqda. Raqamli texnologiyalar shahar makonining an'anaviy chegaralarini kengaytirib, real va virtual makonlarning o'zaro uyg'unlashuviga olib kelmoqda. "Aqlli shahar" konsepsiyasi, raqamli infratuzilma, elektron boshqaruv, masofaviy mehnat, raqamli xizmatlar, virtual kommunikatsiya va platforma iqtisodiyotining rivojlanishi urbanizatsiyaning yangi shakllarini yuzaga keltirmoqda. Shu nuqtayi nazardan, zamonaviy urbanizatsiyani faqat demografik yoki iqtisodiy hodisa sifatida emas, balki jamiyat borlig'ining makoniy, ijtimoiy va texnologik transformatsiyasi sifatida o'rganish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, axborotlashgan jamiyatda insonning shahar muhiti bilan munosabati tubdan o'zgarib, urbanistik makon nafaqat yashash, ishlab chiqarish va ijtimoiy muloqot maydoni, balki axborot almashinuvi, bilim yaratish, innovatsiyalarni joriy etish va yangi ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish makoniga aylanmoqda. Natijada urbanizatsiya jarayonlari inson va jamiyat borlig'ining yangi shakllarini yuzaga keltirmoqda. Bu esa urbanizatsiyaning ontologik asoslarini, uning ijtimoiy borliqdagi o'rnini va zamonaviy jamiyat taraqqiyotiga ta'sirini falsafiy jihatdan tadqiq etishni taqozo etadi.

Urbanizatsiyaning ontologik jihatlarini tadqiq etishda, avvalo, "shahar", "shahar makoni", "ijtimoiy borliq", "inson mavjudligi", "raqamli makon" va "axborotlashgan jamiyat" kabi kategoriyalarning o'zaro aloqadorligini aniqlash muhimdir. Chunki zamonaviy shahar makoni moddiy infratuzilma bilan bir qatorda, axborot, bilim, kommunikatsiya va raqamli texnologiyalar asosida shakllanayotgan nomoddiy makonni ham o'z ichiga olmoqda. Shu sababli urbanizatsiyaning ontologik asoslarini o'rganish jamiyat mavjudligining makoniy, ijtimoiy, texnologik va madaniy jihatlarini kompleks tarzda tahlil qilish imkonini beradi.

Tadqiqotning ilmiy muammosi axborotlashgan jamiyat sharoitida urbanizatsiya fenomenining an'anaviy demografik va iqtisodiy talqinlari zamonaviy urbanistik jarayonlarning mohiyatini to'liq ifodalay olmayotganligi bilan belgilanadi. Xususan, raqamli texnologiyalar ta'sirida shahar makonining o'zgarishi, real va virtual ijtimoiy makonlarning integratsiyalashuvi, insonning urbanistik muhitdagi mavjudlik shakllarining transformatsiyasi hamda urbanizatsiyaning jamiyat taraqqiyotiga ta'sirini ontologik nuqtayi nazardan izohlash zarurati yuzaga kelmoqda.

Tadqiqotning maqsadi axborotlashgan jamiyatda urbanizatsiya fenomenining ontologik asoslarini falsafiy jihatdan tahlil qilish, uning ijtimoiy borliqdagi o'rni va mazmunini ochib berish hamda urbanizatsiya jarayonlarining raqamlashtirish, globallashuv va ijtimoiy transformatsiyalar bilan o'zaro aloqadorligini aniqlashdan iborat.

Mazkur maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilanadi: urbanizatsiya fenomenining falsafiy mazmuni va ontologik xususiyatlarini aniqlash; axborotlashgan jamiyatning shakllanishi va urbanizatsiya jarayonlari o'rtasidagi dialektik aloqadorlikni ochib berish; shahar makonining moddiy va raqamli shakllari o'rtasidagi munosabatlarni tahlil qilish; raqamlashtirishning urbanistik jarayonlarga ta'sirini aniqlash; urbanizatsiyaning inson mavjudligi, ijtimoiy munosabatlar va madaniy muhit transformatsiyasidagi rolini yoritish; zamonaviy urbanizatsiyaning ijtimoiy-falsafiy istiqbollarini belgilash.

Tadqiqot obyekti. Axborotlashgan jamiyat sharoitida yuzaga kelayotgan urbanizatsiya jarayonlari, ularning ijtimoiy borliqdagi namoyon bo'lish shakllari hamda inson, jamiyat va shahar makoni o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tizimi.

Tadqiqot predmeti. Aaxborotlashgan jamiyatda urbanizatsiya fenomenining ontologik mazmuni, uning shakllanish va rivojlanish qonuniyatlari, raqamlashtirish, globallashuv va innovatsion jarayonlar bilan o'zaro aloqadorligi hamda urbanizatsiyaning ijtimoiy borliq transformatsiyasiga ta'siridir.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi urbanizatsiya fenomenining axborotlashgan jamiyat sharoitidagi ontologik xususiyatlarini kompleks falsafiy yondashuv asosida ochib berish bilan belgilanadi. Unda urbanizatsiya shahar aholisi va hududiy o'sish jarayoni sifatida emas, balki inson va jamiyat mavjudligining mako-

niy-tashkiliy shakllarini o‘zgartiruvchi, real va raqamli makonlarning integratsiyasini ta’minlovchi murakkab ijtimoiy fenomen sifatida asoslanadi. Shuningdek, urbanizatsiyaning zamonaviy shakllanishida axborot -kommunikatsiya texnologiyalari, raqamli infratuzilma, innovatsion rivojlanish va yangi kommunikatsiya vositalarining ontologik ahamiyati ochib beriladi.

Yangi O‘zbekiston fenomeni bilan atalayotgan yurtimiz rivojining hozirgi bosqichida mamlakatimiz taraqqiyotiga xos bo‘lgan xususiyatlarni O‘zbekistonning eng yangi tarixini yaratish nuqtai nazaridan xolisona, kengroq o‘rganishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Bu borada Respublikamiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev alohida ta’kidlaganidek: “Mamlakatimiz va jahon sivilizatsiyasi tarixini chuqur o‘rganish vazifalari hali sifatli va to‘liq holda yechilgani yo‘q” [1;283-b.]. Shu nuqtayi nazardan, axborotlashgan jamiyat sharoitida ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi bosqichi uchun xarakterli bo‘lgan sivilizatsion xususiyatlarni, xususan, urbanizatsiyaning ontologik asoslarini o‘rganish muhim dolzarb ahamiyat kasb etadi. Urbanizatsiya sivilizatsion taraqqiyotning natijasi bo‘lish bilan birga, uning keyingi rivojlanish yo‘nalishlarini belgilovchi muhim omildir. Axborotlashgan jamiyatda shaharlarning rivojlanishi iqtisodiy munosabatlar bilangina cheklanmay, jamiyatning madaniy, ma’naviy, siyosiy, texnologik va ijtimoiy tuzilishida ham chuqur transformatsiyalarni yuzaga keltiradi. Bu transformatsiyalar esa, o‘z navbatida, shahar mavjudligining yangi ontologik asoslarini shakllantiradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Jamiyat taraqqiyotida sivilizatsion yondashuvning mohiyatini «sivilizatsiya» tushunchasining tahlili orqali erishish mumkinligi to‘g‘risidagi urinishlar orasida Y.M. Amelina, A.C.Babushkin, M.A.Barg, E.Benvenist, B.S.Yerasov, I.N.Ionov kabilarning asarlarini qayd etish mumkin. Shuningdek, ushbu toifadagi adabiyotlar qatoriga o‘sha davrda chop etilgan izohli lug‘atlarni ham sanab o‘tish mumkin [2;92–102-b.]. Axborotlashgan jamiyatda urbanizatsiyaning ontologik asoslarini tadqiq qilishda M.Kastelsning "Tarmoq jamiyati", E.Tofflerning "Uchinchi to‘lqin", D.Bellning "Postindustrial jamiyat" kabi asarlari muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Yangi O‘zbekiston sharoitida ma’naviy hayotdagi yangilanish va tub o‘zgarishlar, mafkuraviy islohotlar transformatsiyasini, ularga xos qonuniyatlar va ijtimoiy taraqqiyot strategiyalarida ma’naviy-mafkuraviy omillarning jamiyat taraqqiyotidagi falsafiy jihatlarini tadqiq etish, ularni ilmiy asoslash yanada dolzarblashmoqda. Ayniqsa, axborotlashgan jamiyat sharoitida urbanizatsiyaning ontologik asoslarini o‘rganish – bu raqamli texnologiyalarning shahar mavjudligiga ta’siri, virtual shahar makonining shakllanishi, "aqlli shahar" konsepsiyasining falsafiy asoslari kabi masalalarni qamrab oladi.

Maqolani yoritishda analiz, sintez, taqqoslash, germenevtik tahlil, ontologik yondashuv kabi metodlardan foydalanildi. Ontologik yondashuv urbanizatsiyani borliqning maxsus shakli sifatida, uning axborotlashgan jamiyatdagi yangi mavjudlik usullarini o‘rganish imkonini beradi.

Muhokama. Urbanizatsiya – jamiyat hayotida shaharlarning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy-madaniy roli oshib borishining tarixiy jarayoni [3;415-b.] hisoblanib, u, bugungi zamon ijtimoiy-siyosiy jarayonlarining uzviy qismiga aylanib ulgurdi. Axborotlashgan jamiyat sharoitida esa urbanizatsiya yangi ontologik asoslarga ega bo‘lmoqda: raqamli texnologiyalar, tarmoq kommunikatsiyalari, virtual makon shahar mavjudligining ajralmas qismiga aylanmoqda.

Urbanizatsiya tushunchasi, uning asosiy sabablari. Urbanizatsiya (lotincha urbanus – shahar) – jamiyat taraqqiyotida shaharlarning rolini oshirish jarayoni [4]. Maxsus shahar munosabatlari aholining ijtimoiy-kasbiy va demografik tuzilishini, turmush tarzini, ishlab chiqarishni joylashtirish va ko‘chirishni qamrab oladi. Urbanizatsiyaning zaruriy shartlari: sanoatning o‘sishi, hududiy mehnat taqsimotining chuqurlashishi, shaharlarning madaniy-siyosiy funktsiyalarining rivojlanishi. Axborotlashgan jamiyatda bu shartlarga yana bir muhim omil – axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi, raqamli infratuzilmaning shakllanishi qo‘shiladi. Urbanizatsiya shaharlarga kirib borishi bilan tavsiflanadi qishloq aholisi va odamlarning qishloq muhitidan va eng yaqin kichik shaharlardan yirik shaharlarga (ish uchun, madaniy va maishiy ehtiyojlar uchun) o‘sib borayotgan mayatnik harakati. Shaharlar qadim zamonlardan beri mavjud bo‘lgan, ammo shahar sivilizatsiyasi faqat bizning asrimizda paydo bo‘lgan. Axborotlashgan jamiyatda esa shahar sivilizatsiyasi yangi bosqichga – raqamli shahar sivilizatsiyasiga o‘tmoqda.

Sivilizatsion rivojlanish haqidagi ilmiy bahslarda urbanizatsiyani milliy va umumbashariy jihatlari, ularning madaniyatga ta’siri masalalari tadqiq etiladi. Urbanizatsiya global rivojlanishiga eltuvchi ijtimoiy-madaniy fenomen ekanini ochib beriladi. “Urbanizatsiya” tushunchasi uning asosiy yo‘nalishlari, tizimi, xususiyatlari va hududiy, regional jihatlari haqida turli qarashlar hamda urbanizatsiyani keng ijtimoiy-madaniy, jugrofiy, etnosotsial, arxitektura, boshqarish, infratuzilmalar, shahar xo‘jaligi, xizmatlar ko‘rsatish, demografiya va migrasiya, aglomerasiya, qishloq turmush tarzi, transport aloqalar kabi ko‘plab sohalar, omillar bilan bog‘liqligi haqida fikrlar bayon etiladi. Axborotlashgan jamiyatda bu omillarga yana raqamli

tengsizlik, internetdan foydalanish imkoniyati, raqamli savodxonlik, elektron xizmatlar, smart-city texnologiyalari kabi yangi omillar qo'shiladi. "Sivilizatsiya" atamasining insoniyat tarixida ijtimoiy aloqa vositalari, til, boshqarish tizimi, shaharlar yuzaga kelgani bilan izohlanishi va sivilizatsiya va sivilizatsion rivojlanish haqidagi ilmiy bahslar hamda "urbanizatsiya" va "sivilizatsiya" tushunchalari, falsafiy-germenevtik nuqtai nazardan, bir-biriga yaqin va bir-birini to'ldirib keluvchi voqeliklar ekanligi to'g'risida fikr yuritiladi. Axborotlashgan jamiyatda bu o'zaro bog'liqlik yanada kuchayib, raqamli makon va jismoniy shahar makoni o'rtasida yangi ontologik munosabatlar shakllanmoqda.

Urbanizatsiyaga sivilizatsion taraqqiyot ko'rinishi sifatida qarash bugungi tadqiqotchilarda ustivorlik qiladi. Muammoga retrospektiv yondashgan tadqiqotchilar urbanizatsiyaning ilk ko'rinishlari eramizdan avvalgi 3-1 ming yilliklardayoq mavjud bo'lganini qayd etishadi. Shaharsozlik, kishilarning o'troq hayotga o'tishi, umumiy normalar va turmush tarzining shakllanishi insoniyat tarixida shunday jarayonlar ediki, ular hayotni madaniylashtirish, osonlashtirish va qulaylashtirishni ustivor istakga aylantirdi. Keyingi global taraqqiyot ana shu paradigma mahsulidir. Axborotlashgan jamiyatda esa bu paradigma yangi mazmun kasb etadi: raqamli texnologiyalar orqali hayotni yanada qulaylashtirish, shahar xizmatlarini optimallashtirish, fuqarolarning shahar boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirish imkoniyatlari paydo bo'lmoqda. Urbanizatsiyaning navbatdagi belgilaridan biri aholi sonining oshishi, ya'ni ijtimoiy-demografik omil bilan bog'liq. Axborotlashgan jamiyatda esa bu omil raqamli demografiya, virtual migratsiya kabi yangi ko'rinishlarga ega bo'lmoqda. Urbanizatsiyaning ontologik asoslari – uning borliq bilan munosabati, yangi raqamli voqelikda shahar mavjudligining ma'no-mazmuni masalasi birinchi o'ringa chiqmoqda.

Natijalar. Shuni ham ta'kidlash joizki, axborotlashgan jamiyatda urbanizatsiya bir qator salbiy oqibatlarga olib keladi: aholining hudud bo'yicha taqsimlanishida muvozanat buziladi; ekologik buzilishlar, aholining nosog'lom muhiti muammolari – shovqin, havo ifloslanishi, yuqumli xavf, ultratovush nurlanishi, transport muammolari, binolarni siqish va boshqalar; salbiy ijtimoiy oqibatlar – jinoyatchilik, giyohvandlik, fohishalik va boshqalarning o'sishi. Bundan tashqari, axborotlashgan jamiyatda yangi salbiy omillar ham paydo bo'lmoqda: raqamli tengsizlik, internetga ulanish imkoniyatining cheklanganligi, kiberjinoyatchilik, shaxsiy ma'lumotlarning himoyasizligi, raqamli qaramlik, virtual muhitda yolg'izlik va ijtimoiy izolyatsiya. Bu omillar urbanizatsiyaning ontologik asoslarini qayta ko'rib chiqishni, shahar mavjudligining yangi shakllarini falsafiy tahlil qilishni taqozo etadi.

Urbanizatsiya zamonamizning eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy jarayonidir. Uning rivojlanishida uch bosqich mavjud:

1. Dastlabki bosqich – 19-asr. Urbanizatsiya jarayoni Yevropa va Shimoliy Amerikada boshlandi;
2. XX asrning birinchi yarmi. Bu bosqich shahar aholisi o'sishining tezlashishi va urbanizatsiyaning dunyoning deyarli barcha mintaqalariga tarqalishi bilan tavsiflanadi;
3. XX asrning ikkinchi yarmi. Ushbu bosqich shahar aholisining o'sish sur'atlarining yanada tezlashishi, yirik shaharlarning rivojlanishi, nuqta shahardan aglomeratsiyaga (shaharlar va qishloq aholi punktlarining hududiy guruhiga) o'tish, shuningdek, aholi punktlarining shakllanishi bilan tavsiflanadi – megalopolislar (shahar aglomeratsiyalarining birlashishi), bu esa shahar turmush tarzining qishloq joylariga tarqalishiga olib keladi.

Axborotlashgan jamiyatda urbanizatsiyaning to'rtinchi bosqichi – raqamli urbanizatsiya bosqichi shakllanmoqda. Bu bosqich quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

- Raqamli texnologiyalarning shahar infratuzilmasiga chuqur integratsiyalashuvi.
- "Aqlli shahar" (smart city) konsepsiyasining joriy etilishi.
- Virtual va real shahar makonining o'zaro bog'liqligi.
- Shahar xizmatlarining raqamlashtirilishi va avtomatlashtirilishi.
- Fuqarolarning shahar boshqaruvidagi ishtirokining elektron platformalar orqali kengayishi.
- Raqamli makonda yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi.

Bu bosqichda urbanizatsiyaning ontologik asoslari tubdan o'zgaradi: shahar endi nafaqat jismoniy makon, balki raqamli makon hamdir. Shahar mavjudligi ikki qatlamda – real va virtual qatlamda kechadi. Bu esa, o'z navbatida, shahar tushunchasining o'zini qayta ta'riflashni taqozo etadi.

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot bosqichida urbanizatsiyalash tomon qaratilgan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Respublikamiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2019-yil 10-iyulda urbanizatsion taraqqiyotni ta'minlashga oid maxsus "Urbanizatsiya jarayonlarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi. Unda Respublikamiz ijtimoiy taraqqiyotida urbanizatsiya jarayonlari yetarli darajada hisobga olinmagani ta'kidlanadi. Natijada so'nggi yillarda urbanizatsiya darajasining pasayish tendensiyasi kuzatilmoqda, shahar aholi punktlari soni atigi 1065 dan 1071 gacha ko'pay-

gan. Yirik qishloq aholi punktlarini shahar posyolkalariga aylantirish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlarga qaramasdan, bugungi urbanizatsiya darajasi shaharlarni kompleks rivojlantirish bo'yicha zamonaviy talablarga javob bermaydi va jahon tendensiyalaridan sezilarli darajada qolib ketmoqda. Bunda urbanizatsiya darajasi hanuzgacha barqaror xususiyatga ega emas. Zamonaviy urbanizatsiya faqat shaharsozlik, binolar qurish emas, u keng ma'nodagi shahar madaniyatini, shahar aholisining barcha ehtiyojlarini qondirishga loyiq infratuzilma yaratishni taqozo etadi. Axborotlashgan jamiyat sharoitida esa bu infratuzilma raqamli komponentni ham o'z ichiga olishi, raqamli tengsizlikni bartaraf etish, barcha fuqarolarning axborot resurslaridan teng foydalanishini ta'minlash kabi vazifalarni ham hal qilishi kerak.

Xulosa. Shunday ekan, sivilizatsion yondashuvda axborotlashgan jamiyat sharoitida urbanizatsiya jarayonlari muhim o'rin egallashi tabiiy holdir. Urbanizatsiya jarayonlarini ilmiy tadqiq qilish taraqqiyot strategiyamizda belgilangan ustuvor vazifalarni hal etishda muhim o'rin tutadi. Axborotlashgan jamiyatda urbanizatsiyaning ontologik asoslarini o'rganish – bu shahar mavjudligining yangi shakllarini, raqamli makonning shahar hayotiga ta'sirini, virtual va real shahar muhitining o'zaro munosabatini falsafiy tahlil qilish demakdir.

Fuqarolarimiz tafakkur tarzini o'zgartirishimiz orqali urbanizatsiya natijasida yuzaga kelayotgan muammolar va ularning oldini olishimiz mumkin. Axborotlashgan jamiyat sharoitida bu tafakkur tarzini o'zgartirish raqamli savodxonlikni oshirish, axborot madaniyatini shakllantirish, raqamli tengsizlikni bartaraf etish, shahar boshqaruvida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash kabi yo'nalishlarda amalga oshirilishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, axborotlashgan jamiyatda urbanizatsiya fenomenining ontologik asoslari quyidagilardan iborat:

1. Shahar endi nafaqat jismoniy, balki raqamli makonda ham mavjud.
2. Smart-city, IoT, sun'iy intellekt kabi texnologiyalar shahar hayotining ajralmas qismiga aylanmoqda.
3. Shahar jamoasi endi nafaqat hududiy, balki tarmoq asosida ham shakllanmoqda.
4. An'anaviy shahar madaniyati raqamli madaniyat bilan integratsiyalashmoqda.
5. Raqamli tengsizlik, kiberxavfsizlik, shaxsiy ma'lumotlar himoyasi kabi muammolar shahar mavjudligining yangi ontologik o'lchovlarini belgilaydi.

Bu ontologik asoslarni chuqur o'rganish O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida urbanizatsiya jarayonlarini samarali boshqarish, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi turmush darajasini oshirish va jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun muhim ilmiy-nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

[1]. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'nalishimizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'tarilamiz. Toshkent, "O'zbekiston", 2017, 283-bet.

[2]. Амелина Е.М. Понятие «цивилизация» вчера и сегодня. Общественные науки и современность. 1992, № 2, с. 92–102.

[3]. Falsafa. Qomusiy lug'at. T.oshkent, "Sharq", 2004, 415-bet.

[4]. https://demografiya.uz/uz/wiki/urbanizatsiya/

Raximov Gayrat Buvaxanovich (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti O'quv ishlari bo'yicha prorektori, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.)

YANGI O'ZBEKISTONDA SUN'IY INTELLEKT RIVOJLANISHINING IJTIMOIY-FALSAFIY ASOSLARI VA TARAQQIYOT QONUNIYATLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Yangi O'zbekiston sharoitida sun'iy intellekt texnologiyalari rivojlanishining ijtimoiy-falsafiy asoslari, uning jamiyat taraqqiyoti, inson tafakkuri, ijtimoiy munosabatlar va ma'naviy hayotga ta'siri tadqiq etiladi. Sun'iy intellektning ilmiy-texnik taraqqiyot mahsuli sifatidagi mohiyati, inson intellektual faoliyati bilan o'zaro aloqadorligi hamda raqamli jamiyat shakllanishidagi o'rni falsafiy jihatdan tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *Yangi O'zbekiston, sun'iy intellekt, ijtimoiy falsafa, ilmiy-texnik taraqqiyot, raqamli jamiyat, intellektual rivojlanish, inson tafakkuri, ijtimoiy munosabatlar, texnologik transformatsiya, insonparvarlik.*